O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(III-QISM)

(2024 YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISHI

Shavqiyev Erkin,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

Annotatsiya.Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm bozorini rivojlanishi shu bilan birgalikda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida raqamli o‘zgarishlar yoritib berilgan.Turli xil bronlash tizimlari ,virtual tizim turizm sohasini rivojlantirish va raqamlashtirish o‘rganilgan .Transport xizmatlaridagi elektron tijorat va xizmat ko‘rsatish sohasi muammolari o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar.Turizm,turist,virtual tizim,turli xil bronlash tizimlari(CRS),Fidelio tizimi,Nimeta tizimi,yandex taxi.

РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В статье освещено развитие туристического рынка в условиях цифровой экономики, а также цифровые изменения в системе жилищно-коммунального хозяйства, развитие и цифровизация различных систем бронирования, виртуальных систем в сфере туризма. Изучены и проанализированы проблемы электронной коммерции и сервиса в сфере оказания транспортных услуг.

Ключевые слова. Туризм, туристическая, виртуальная система, различные системы бронирования (CRS), система Fidelio, система Nimeta, Яндекс такси.

DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract: In the article, the development of the tourism market in the conditions of the digital economy, as well as the digital changes in the housing and communal services system, are highlighted. The development and digitalization of various reservation systems, virtual systems in the tourism sector are studied. Electronic commerce and service in transport services. problems in the field of rendering are studied and analyzed.

Keywords: Tourism, tourist, virtual system, various reservation systems (CRS), Fidelio system, Nimeta system, Yandex taxi.

Kirish. Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘z mazmuniga ko‘ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish,zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog’liq bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarini yaratish,mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta’minlash bo‘yicha xo‘jalik faoliyatining turli yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir,chunki xizmatlar sohasida boshlang'ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag'larni talab qilib,kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi.Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko‘rsatish intensivligini ta'minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi.Shunga ko‘ra,xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish resurslardan samarali foydalanish ,mehnat faoliyati samaradorligini ta'minlash ,ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish ,iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liqroq qondirish bilan bog'liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish kelgusida ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. 2022-yil 1-oktabr holatiga viloyatimizda jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 31,2 mingtani tashkil etdi, ulardan 19,8 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to‘g'ri kelib, jamiga nisbatan 63,6 % ga yetdi. Ularning o‘sishi 13,9 % ga ko‘paydi.

Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishiga, ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining aniq miqdoriy ustunligi ushbu sohaning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Xizmatlar ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 15,0 mingtasi yoki 75,6 % kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga to‘g'ri keladi.

2022-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasi bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 57,1 % ni tashkil etdi. Ularning soni o‘tgan yilga nisbatan 2,3 mingtaga ko‘payib, o‘sish sur'ati 17,6% ni tashkil etdi.

2022-yil 1-oktabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (40,9 %) yuqori ulushni egallaydi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi. Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,8 % ga teng bo‘ldi.

Baholash o‘rniga xizmat ko‘rsatish korxonasida auditorlik tekshiruvidan foydalanish mutlaqo noto‘g'ri qadam hisoblanadi. Shuning uchun auditorlik tekshiruvi baholash o‘rniga emas, balki baholash bilan birga o‘tkazilishi kerak. Keyingi ishlar jarayonida korxona uchun mol-mulkni sotishga zarurat tug'ilishi mumkin. Shu munosabat bilan ushbu mol-mulkni baholash zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatish korxonasini rivojlantirishda investitsiya loyihalarini baholash va biznesni rejalashtirish bo‘yicha bilimlar talab etilishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonasini transformatsiyalash (qayta tarkiblash) uchun baholash ishlarining aniq bajarilishini ta'minlash lozim.

Korxonalarni transformatsiyalash (qayta tarkiblash) ishlari, faqat ularda korxonaning va tegishli bozor infratuzilmasining mutaxassislari ishtirok etgan taqdirda, bajarilishi mumkin, tranaformatsiyalash (qayta tarkiblash) dasturining ishlab chiqilishi natijasida esa, xizmat ko‘rsatish korxonasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma'naviy maqom yo‘nalishlari aniqlanadi.

Korxonalarni transformatsiyalash mehnat taqsimoti va xizmat ko‘rsatishning ixtisoslashuvini ta'minlagan holda, ishlab chiqaruvchilar va ularning ishlab chiqargan mahsulotlaridan bahramand bo‘luvchilar, ya'ni, iste'mol qiluvchilarning manfaatlarini inobatga oluvchi yagona konsepsiya doirasida amalga oshirilishi lozim. Mintaqalarda transformatsion jarayonlarni rivojlantirish "Transformatsiya rivojini qo‘llab-quvvatlash dasturi" tarkibiga kiruvchi maxsus ishlanmalarga asoslanishi kerak. Turli xil bronlash tizimlari (CRS - computer reservation systems) mavjud, ularning barchasi taqdim etilayotgan xizmatlarning to‘plami va texnologiya ishi bilan bir-biridan farq qiladi. Sirena, Amadeus, Gabrielle kabi eng eski tizimlarning aksariyati sizning ofisingizda o‘rnatishingiz kerak bo‘lgan maxsus terminallar orqali ishlaydi

Tahlil va natijalar: Korxonalarni transformatsiyalash jarayonida bir-biriga xom ashyo, resurslar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni o‘tkazish kabi o‘zaro kooperatsion aloqa kasb etuvchi bir nechta xo‘jalik sub'yektlari hamkorlik munosabatida bo‘ladi, shuningdek, yakuniy daromad va foydani (qo‘shilgan qiymat) olish bilan bog'liq o‘ziga xos munosabatlarga kirishadi. Shuning uchun ham har bir tuman hokimliklari mazkur tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissasini qo‘shayotgan iqtisodiyotning bazaviy korxonalari uchun o‘zining differensial "Korxonani trnsformatsiyalash Nizomi" ning yaratilishi va shu asosida ish faoliyati yuzasidan doimiy monitoring yuritishi kerak, chunki transformatsiyalash jarayonlari yilning to‘rt faslida ham barqarorlikni ta'minlash garovidir. Bu va shunga o‘xshash masalalar Respublikamizdagi yuqori boshqaruv organlariga oid tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali hal etilishni ham o‘z navbatida talab qiladi. Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga raqamli, resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal xo‘jalik ob’ektlarini zamonaviy “aqlli” hisobga

olish-o‘lchash priborlari, “suniy intelekt” texnologiyasi bilan ta’minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan, shuningdek, xafvsizligini ta’minlaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda ushbu texnologiyalarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydalanish, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishiga va natijada aholi turmush farovonligini yuksalishi, tizim samaradorligini ortishiga olib keladi Misol sifatida Yandex Taxi, City Taxi, Gett Taxi mamlakatimizda OK Taxi va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Taksi chaqirish uchun endi ko‘chaga chiqish, operatorga qo‘g’iroq qilish zarur emas, birgina mobil ilovadan foydalangan xolda smartfondan foydalanib, daqiqalar ichida taksi chaqirish mumkin. Yuqoridagi servislar nafaqat taksi chaqirish, balki mashinani kelishini, holatini, harakatini nazorat qilishi hamda qancha mablag‘ ketishini bilib turishi taminlab beradi.

Xulosa va takliflar: Hozirgi paytda transport kompaniyalar o‘z faoliyatlarini yuklar tashish yo‘nalishiga ham qaratmoqdalar. Masalan, Germaniya milliy temir yo‘l yuk tashuvchisi Deutsche Bahn DB Navigator deb nomlangan serviz taklif qilgan. Bu servis barcha poyezdlarning qayerda ekanligini aniqlashga imkon beradi. Yaponiyada esa temir yo‘l ishni boshqarishga imkon beradigan robot yaratgan. Bu robot ekranda marshrutni korsatib bera oladi, yordam so‘ragan passajirlarga esa maslahat bera oladi. Dunyodagi eng innovatsion metropoliten Seul metropoliteni bo‘lib, unda “Metropoliten – elektron supermarket“ deb nomlangan loyiha ishga tushirilgan. Kerakli mahsulotlarni tanlash va QR-kod orqali zakaz qilish uchun kerakli bo‘lgan elektron vitrinalar poezdlarga tushush platformalarida joylashtirilgan. Barcha tanlangan va zakaz qilingan mahsulotlar siz uyga kelganingizda yetkazib beriladi. Kelajak transport tizimining ko‘rinishi, biznigcha, quyidagicha bo‘lishi kutilmoqda: Avvalo, bu rivojlanish tendentsiyalarida dunyo va mamlakatlar miqyosida bir butun integrallashgan transport tizimi paydo bo‘ladi. Bunday tizimda turli xildagi transport vositalari yordamida yuk va passajirlar tashish yagona transport tizimiga birlashib, iste’molchilrning talablarini maksimal darajada qondiradi. Mobil ilovalar ko‘rinishidagi elektron servislar mavjudligi, barcha transport vositalari uchun elektron biletlar sotib olish mumkinligi vaqt sarfining minimal darajaga keltirilishi, bir transportdan boshqasiga tezkorlik bilan o‘tish imkoniyatlari tufayli transport xizmatlarining sifati yuksak darajaga yetadi. Kelajak transport tizimining ko‘rinishi, biznigcha, quyidagicha bo‘lishi kutilmoqda: Avvalo, bu rivojlanish tendentsiyalarida dunyo va mamlakatlar miqyosida bir butun integrallashgan transport tizimi paydo bo‘ladi. Bunday tizimda turli xildagi transport vositalari yordamida yuk va passajirlar tashish yagona transport tizimiga birlashib, iste’molchilrning talablarini maksimal darajada qondiradi. Mobil ilovalar ko‘rinishidagi elektron servislar mavjudligi, barcha transport vositalari uchun elektron biletlar sotib olish mumkinligi vaqt sarfining minimal darajaga keltirilishi, bir transportdan boshqasiga tezkorlik

bilan o‘tish imkoniyatlari tufayli transport xizmatlarining sifati yuksak darajaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘rsida”gi PQ-5113-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevraldagi “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 55-sonli qarori. //www.lex.uz
4. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). International Journal on Orange Technologies, 3(3), 128-13
5. Морозов М.А., Морозова Н.С., Развитие цифровой сервисной экономики и ее влияние на рынок труда // Сервис plus. Т. 12. 2018. № 1. С. 100–107 DOI: 10.22412/1993-7768-12-1-10
6. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. World scientific research journal, 4(2), 7-11.
7. Umarov O.S. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari “Iqtisodiyot va innovatsion texnoligiyalar” ilmiy elektron jurnal. №3 may-iyun 2018 yil
8. Servis plus Tom 12 2018 №1 / Service plus Volume 12 2018 #1
9. http://www. Xorazmstat.uz

SAVDO XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD tel: +998941891989 elk-p: ferdu_www@mail.ru

Madrimova Aziza Shuxrat qizi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistiranti. tel:+99899-007-35-27 elk-p: azizamadrimova69@gmail.com

Annotatsiya. Savdo xizmatlari samaradorligini oshirishning innovatsion usullari savdo sohasida raqobatbardoshlikni ta’minlash va mijozlarga xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlar tadqiq etilgan bo’lib, savdo xizmatlarini rivojlantirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

	SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH GAROVI	
Po‘latova Shahnoza Abdirashitovna	OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA YASHIL MARKETING KONSEPSIYASINI QO‘LLASH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI	179
Жумақулов Озодбек	ИНВЕСТОР УЧУН ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЭНГ МУКАММАЛ ВА МАСЪУЛИЯТЛИ ТАДБИРЛАРДАН БИРИДИР	184
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Zaripov Alimjon Utkir o‘g‘li	TADBIRKORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI, TAVSIFI VA TASNIFLASH	188
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	THE ROLE OF DIGITAL TRANSFORMATION IN SERVICE INDUSTRIES AND ITS IMPACT ON HUMAN RESOURCE MANAGEMENT	192
Пулатова Гулнара Тулановна	DATA-DRIVEN ПОДХОД В УПРАВЛЕНИИ ОТРАСЛЕВЫМИ ИННОВАЦИЯМИ: РОЛЬ АНАЛИЗА ДАННЫХ В ПРИНЯТИИ РЕШЕНИЙ	199
Боймуротова Маржона Шавқиев Эркин	ЎЗБЕКИСТОНДА САНОАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ ВА СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШЛАРИ	205
Ахтамова М.Э	КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ: ЗАЛОГ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ УЗБЕКИСТАНА	209
Shavqiyev Erkin Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISHI	214
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Madrimova Aziza Shuxrat qizi	SAVDO XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	218
С.Ў.Ҳусенов	ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ИНСОН КАПИТАЛИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИНГ УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ	222